MANZARA KOMPOZITSIYASINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING BADIIY-IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL MODELI

Xamraqulova Muqaddamxon Tojiqo‘zi qizi
Chirchiq davlat
pedagogika universiteti doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23118621

Annotatsiya. Maqolada 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan strukturaviy-funksional pedagogik model yoritilgan. Modelning maqsadli, tashkiliy, jarayonli va natijaviy bloklari, ularning o‘zaro aloqasi hamda refleksiya va korreksiyaga asoslangan qayta aloqa mexanizmi tavsiflangan. Ta’lim mazmunining spiralsimon tashkil etilishi, an’anaviy va raqamli-interaktiv vositalar, STEAM, gamifikatsiya hamda sun’iy intellekt imkoniyatlarining integratsiyasi asoslangan. Shuningdek, badiiy-ijodiy qobiliyatlarni fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlik mezonlari asosida baholash yondashuvi ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: manzara kompozitsiyasi, badiiy-ijodiy qobiliyat, strukturaviy-funksional model, fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok, kreativlik, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В статье представлена структурно-функциональная педагогическая модель формирования художественно-творческих способностей учащихся 5–7 классов в процессе обучения композиции пейзажа. Раскрыты целевой, организационный, процессуальный и результативный блоки модели, их взаимосвязь и механизм обратной связи на основе рефлексии и коррекции. Обоснованы спиральная организация содержания обучения, интеграция традиционных и цифровых средств, STEAM, геймификации и искусственного интеллекта. Рассмотрена оценка художественно-творческих способностей по критериям пространственного воображения, композиционного мышления, эстетического восприятия и креативности.
Ключевые слова: композиция пейзажа, художественно-творческие способности, структурно-функциональная модель, пространственное воображение, композиционное мышление, эстетическое восприятие, креативность, цифровые технологии.

Abstract. The article presents a structural-functional pedagogical model for developing the artistic and creative abilities of Grade 5–7 students through teaching landscape composition. It describes the target, organizational, process-oriented and result-oriented blocks of the model, their interrelations, and the feedback mechanism based on reflection and correction. The study substantiates the spiral organization of learning content and the integration of traditional and digital tools, STEAM, gamification and artificial intelligence. Artistic and creative abilities are assessed through spatial imagination, compositional thinking, aesthetic perception and creativity.

Keywords: landscape composition, artistic and creative abilities, structural-functional model, spatial imagination, compositional thinking, aesthetic perception, creativity, digital technologies.

Kirish

Zamonaviy umumta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchida tayyor axborotni o‘zlashtirish qobiliyatini emas, balki mustaqil fikrlash, muammoni turli nuqtai nazardan ko‘ra olish, original g‘oya yaratish hamda uni amaliy faoliyatda ro‘yobga chiqarish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tasviriy san’at fanining imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Chunki badiiy faoliyat o‘quvchining nafaqat tasviriy ko‘nikmalarini, balki uning tasavvuri, kuzatuvchanligi, estetik idroki, emotsional sezgirligi, obrazli tafakkuri va kreativligini ham kompleks rivojlantiradi.

Tasviriy san’atning manzara janri o‘quvchilarning badiiy-ijodiy salohiyatini shakllantirishda ayniqsa katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Manzara kompozitsiyasini yaratishda o‘quvchi tabiat obyektlarini kuzatadi, ularning fazoviy munosabatlarini tahlil qiladi, muhim va ikkinchi darajali elementlarni ajratadi, kompozitsion markazni belgilaydi, rang va kolorit yechimini izlaydi, shaxsiy hissiy munosabatini obraz orqali ifodalaydi. Shunday ekan, manzara ishlash jarayoni bir vaqtning o‘zida fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlikning shakllanishiga xizmat qiluvchi yaxlit badiiy-pedagogik faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq sanab o‘tilgan natijalarga alohida metod yoki vositani epizodik qo‘llash orqali erishish qiyin. O‘quv maqsadi, ta’lim mazmuni, tashkil etish shakllari, metodlar, vositalar, ijodiy faoliyat bosqichlari hamda baholash mezonlari o‘zaro uzviy tizim sifatida faoliyat yuritgandagina pedagogik jarayon kutilgan samarani beradi. Shu sababli 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit strukturaviy-funksional modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Pedagogik modellashtirish murakkab ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, ular o‘rtasidagi munosabatlar va funksional bog‘lanishlarni yaxlit shaklda ifodalash imkonini beradi. V.A. Shtoff modelni real obyektning muhim xususiyatlarini ifodalovchi va uni o‘rganish orqali obyektning o‘zi to‘g‘risida yangi bilim olish imkonini beruvchi tizim sifatida izohlaydi. V.P. Bespalkoning pedagogik texnologiya haqidagi qarashlarida ham maqsad, mazmun, vosita va natija o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlik ta’lim samaradorligining muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi A.N. Dahin esa pedagogik modellashtirishni o‘quv jarayonini loyihalash va uning natijadorligini oldindan belgilash imkonini beruvchi metodologik vosita sifatida talqin qiladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi — umumta’lim maktablarining 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita va natijalarini o‘zaro integratsiyalovchi strukturaviy-funksional modelning mazmunini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, strukturaviy-funksional, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli va integrativ yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro

uyg‘unligi manzara kompozitsiyasini o‘qitishni faqat tasviriy texnikani egallash jarayoni sifatida emas, balki o‘quvchining badiiy-ijodiy shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydigan murakkab pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

L.S. Vigotskiyning bolalik davridagi tasavvur va ijodkorlik haqidagi ilmiy qarashlariga ko‘ra, ijodiy faoliyat mavjud tajribani oddiy takrorlashdan iborat bo‘lmay, balki uning elementlarini qayta ishlash, yangicha birlashtirish va yangi obrazlarni yaratish jarayonidir. Ushbu g‘oya manzara kompozitsiyasida o‘quvchiga tayyor namuna nusxasini ko‘chirishdan ko‘ra, kuzatilgan tabiat hodisalarini mustaqil badiiy qayta talqin etish imkoniyatini berish zarurligini ko‘rsatadi.

J.P. Guilford tomonidan ilgari surilgan divergent fikrlash konsepsiyasi va E.P. Torrensning kreativlikka oid ilmiy qarashlari esa ijodkorlikning ravonlik, egiluvchanlik, originallik va g‘oyani takomillashtirish kabi xususiyatlarini pedagogik jihatdan rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. Mazkur nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan modelning kreativlik komponentini belgilashda metodologik asos vazifasini bajardi.

Modelni shakllantirishda quyidagi didaktik tamoyillar tayanch sifatida qabul qilindi: ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi, milliylik va hududiylik, shuningdek, an’anaviy va raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Mazkur tamoyillar 5–7-sinflarda ta’lim mazmunining oddiydan murakkabga qarab spiralsimon chuqurlashuvini ta’minlaydi.

Natijalar va muhokama

Strukturaviy-funksional modelning umumiy tuzilishi

Ishlab chiqilgan pedagogik model o‘zaro uzviy bog‘langan to‘rtta yirik blokdan tashkil topadi:

1. maqsadli blok;
2. tashkiliy blok;
3. jarayonli blok;
4. natijaviy blok.

Mazkur bloklar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Modelda to‘g‘ri aloqa ijtimoiy buyurtma va maqsaddan pedagogik natija tomon yo‘nalsa, teskari aloqa erishilgan natijalarni diagnostika qilish orqali ta’lim mazmuni, metodlari va vositalariga zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Model bloki	Asosiy tarkibiy qismlar	Yetakchi funksiyasi
Maqsadli blok	Ijtimoiy buyurtma, maqsad, vazifalar, metodologik yondashuvlar, didaktik tamoyillar	Pedagogik jarayonning strategik yo‘nalishini belgilash
Tashkiliy blok	Spiralsimon mazmun, ta’lim shakllari, metodlar, an’anaviy va raqamli vositalar	“Nima va qanday o‘rgatiladi?” savoliga javob berish
Jarayonli blok	Idrok, loyihalash, ijod va diagnostika bosqichlari	Nazariy mazmunni o‘quvchining faol ijodiy faoliyatiga aylantirish
Natijaviy blok	Fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok, kreativlik; yuqori, o‘rta, past darajalar	Shakllangan qobiliyatlarni diagnostika qilish va natijani aniqlash

Modelning bunday tuzilishi ta’lim jarayonini maqsaddan natijagacha izchil loyihalash, amalga oshirish, nazorat qilish hamda zarur hollarda korreksiyalash imkoniyatini beradi.

Maqsadli blok

Maqsadli blok modelning tizim hosil qiluvchi komponenti hisoblanadi. Uning boshlang‘ich nuqtasini jamiyatning kreativ, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana oladigan shaxsga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoji tashkil etadi.

Mazkur ehtiyojdan tadqiqotning asosiy pedagogik maqsadi kelib chiqadi: **5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish**.

Maqsadni amalga oshirish bir qator o‘zaro bog‘langan vazifalarni nazarda tutadi. Bular o‘quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlari tarkibiy komponentlarini aniqlash; manzara kompozitsiyasini o‘qitish mazmunini yosh xususiyatlariga muvofiq takomillashtirish; zamonaviy metod va vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash; badiiy-ijodiy faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish; shakllangan qobiliyatlarni aniqlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini belgilashdan iborat.

Model shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida har bir o‘quvchining individual tasavvuri va badiiy ifoda usulini qadrlashni; kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy bilimni amaliy ijodiy vaziyatlarda qo‘llashni; tizimli-faoliyatli yondashuv orqali o‘quvchini faoliyat subyekti sifatida ishtirok ettirishni; integrativ yondashuv esa san’atni fan, texnologiya va boshqa ta’lim sohalari bilan bog‘lashni nazarda tutadi.

Tashkiliy blok va spiralsimon ta’lim mazmuni

Tashkiliy blokning markaziy tarkibiy qismi 5–7-sinflar kesimida ishlab chiqilgan spiralsimon ta’lim mazmunidir. Mazkur yondashuv bir xil mavzuni oddiy takrorlash emas, balki avvalgi bilim va ko‘nikmalarni har bir keyingi sinfda yangi murakkablik darajasida rivojlantirishni anglatadi.

5-sinfda propedevtik yo‘nalish ustuvor bo‘lib, o‘quvchilarga manzara janri to‘g‘risida dastlabki ilmiy-badiiy tasavvurlar beriladi. Kuzatuvchanlik, tabiat obyektlarini ajratish, asosiy va ikkinchi darajali elementlarni tanlash, tekislikda sodda kompozitsiya tuzish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

6-sinf bosqichida asosiy e’tibor konstruktiv-fazoviy tasvirga qaratiladi. Chiziqli perspektiva, ufq chizig‘i, ko‘rish nuqtasi, yaqin va uzoq predmetlarning o‘lcham munosabatlari, hajm va makon tushunchalari chuqurlashtiriladi. Natijada o‘quvchining tabiatni fazoviy tizim sifatida idrok etish qobiliyati rivojlanadi.

7-sinfda esa ta’lim mazmuni ijodiy-kompozitsion darajaga olib chiqiladi. Havo perspektivasi, kolorit, ranglarning emotsional ta’siri, tabiat kayfiyati, mualliflik g‘oyasi va badiiy obraz yaratishga alohida e’tibor beriladi. Shu tariqa o‘quvchi oddiy tasvirlashdan tabiatning o‘ziga xos badiiy talqinini yaratish bosqichiga o‘tadi.

Ta’limni tashkil etish shakllari ham modelda xilma-xil tarzda belgilangan. An’anaviy sinf darsi bilan bir qatorda plener mashg‘ulotlari, individual va guruhli ish, mustaqil ta’lim va ijodiy loyiha faoliyatidan foydalanish o‘quvchining turli pedagogik vaziyatlarda faol bo‘lishini ta’minlaydi.

Model metodik jihatdan fenomenga asoslangan o‘qitish, STEAM integratsiyasi, gamifikatsiya, interaktiv-vizual mashqlar va sun’iy intellekt bilan hamkorlik elementlarini

qamrab oladi. Ushbu metodlarning barchasi an’anaviy akademik rasm ishlash metodikasini inkor etmaydi, aksincha, uni zamonaviy o‘quvchi ehtiyojlariga mos ravishda boyitadi.

Ta’lim vositalari ikki o‘zaro bog‘langan guruhda qo‘llaniladi. Birinchi guruhga an’anaviy badiiy materiallar — qalam, akvarel, guash va boshqa tasviriy vositalar kiradi. Ikkinchi guruhni “Ranglar doirasi”, “Interaktiv palitra”, Genially platformasidagi o‘yinli topshiriqlar, Trycolors, ArtRage hamda sun’iy intellekt vositalari kabi raqamli resurslar tashkil etadi. Ularning integratsiyasi o‘quvchining an’anaviy badiiy savodxonligini saqlagan holda raqamli savodxonligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jarayonli blok: “idrok – loyihalash – ijod – diagnostika”

Jarayonli blok modelning texnologik markazi bo‘lib, badiiy-ijodiy qobiliyatlarni amaliy faoliyat orqali shakllantirish mexanizmini aks ettiradi.

Mazkur blok to‘rtta o‘zaro izchil bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich — nazariy asoslarni o‘zlashtirish va vizual tahlil. Ushbu bosqichda manzara kompozitsiyasining asosiy qonuniyatlari, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya va taniqli rassomlar asarlarining badiiy xususiyatlari o‘rganiladi. Nazariy ma’lumotlar imkon qadar vizual va interaktiv shaklda taqdim etiladi. Natijada o‘quvchilarning estetik idroki, kuzatuvchanligi va vizual xotirasi rivojlanadi.

Ikkinchi bosqich — raqamli muhitda mantiqiy loyihalash va interaktiv mashqlar. Bu bosqichda o‘quvchi yakuniy ishni boshlashdan avval uning turli variantlarini izlaydi. Kompozitsion markaz, format, rang yechimi va obrazning umumiy kayfiyati virtual muhitda sinab ko‘riladi. Genially platformasidagi o‘yinli mashqlar, ranglarni aralashtirish dasturlari hamda sun’iy intellekt vositalaridan g‘oya izlashda foydalanish mumkin. Bunda AI o‘quvchi ijodining o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki muqobil variantlarni ko‘rish va tasavvur doirasini kengaytiruvchi yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Mazkur bosqichning muhim pedagogik vazifalaridan biri o‘quvchidagi “oq qog‘oz qo‘rquvi”ni kamaytirishdir. O‘quvchi virtual muhitda xato qilishdan qo‘rqmasdan turli kompozitsion variantlarni sinab ko‘rgach, an’anaviy materiallar bilan ishlash bosqichiga psixologik jihatdan tayyorroq kirishadi.

Uchinchi bosqich — bevosita ijodiy faoliyat. O‘quvchi avvalgi bosqichlarda shakllangan bilim va g‘oyalarni amaliy manzara kompozitsiyasiga aylantiradi. Bu bosqichda uning shaxsiy hissiy munosabati, tabiatni individual ko‘ra bilishi, rang tanlovi, kompozitsion yechimi va badiiy obraz yaratish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Raqamli va an’anaviy vositalar vazifaning maqsadidan kelib chiqib bir-birini to‘ldiradi.

To‘rtinchi bosqich — diagnostika, baholash va refleksiya. Mazkur bosqich ta’lim natijasini oddiy ball qo‘yish bilan cheklamaydi. Interaktiv testlar, amaliy-ijodiy topshiriqlar, pedagogik kuzatuv va ekspert baholashi asosida o‘quvchining badiiy-ijodiy rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Refleksiya orqali o‘quvchi o‘z ishining kuchli va zaif tomonlarini tushunadi, korreksiya orqali esa keyingi ijodiy faoliyatining individual yo‘nalishini belgilash imkoniga ega bo‘ladi.

Shu tariqa bosqichlar “idrok – loyihalash – ijod – diagnostika” ketma-ketligida o‘zaro bog‘lanib, o‘quvchini tayyor tasvirni takrorlovchi ijrochidan mustaqil ijodiy qaror qabul qiluvchi shaxsga aylantiradi.

Natijaviy blok va baholash mezonlari

Modelning natijaviy bloki pedagogik jarayon samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Badiiy-ijodiy qobiliyatning shakllanganligini baholash uchun to‘rtta asosiy mezon belgilangan: fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlik.

Fazoviy tasavvur o‘quvchining perspektiva qonuniyatlarini tushunishi, oldingi, o‘rta va orqa planlarni to‘g‘ri farqlashi, predmetlar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni anglab, ularni ikki o‘lchamli tekislikda ifodalay olishida namoyon bo‘ladi.

Kompozitsion fikrlash tasvir elementlarini maqsadga muvofiq joylashtirish, kompozitsion markazni belgilash, muvozanat va ritmni saqlash hamda asarning umumiy yaxlitligini yaratish qobiliyatini ifodalaydi.

Estetik idrok o‘quvchining tabiat va san’atdagi go‘zallikni his qilishi, ranglar uyg‘unligini tushunishi, koloritni mazmun va kayfiyat bilan bog‘lay olishi hamda obrazga hissiy-estetik munosabat bildira olishida ko‘rinadi.

Kreativlik esa bir vazifa yuzasidan bir nechta yechim taklif qilish, odatiy tasviriy stereotiplardan chetga chiqish, original badiiy g‘oya ilgari surish va uni mustaqil tarzda takomillashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Har bir mezonning shakllanganligi yuqori, o‘rta va past darajalarda aniqlanadi. Bunday darajaviy yondashuv o‘quvchilarni faqat bir-biri bilan qiyoslashga emas, balki har bir o‘quvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatishga imkon beradi. Natijada baholash nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmay, rivojlantiruvchi va korreksion funksiyani ham bajaradi.

Qayta aloqa mexanizmining pedagogik ahamiyati

Taklif etilgan modelning muhim xususiyatlaridan biri unda refleksiya va korreksiyaga asoslangan teskari aloqa mavjudligidir. Mazkur mexanizm modelni oddiy statik sxemadan dinamik va boshqariladigan pedagogik tizimga aylantiradi.

Masalan, diagnostika natijasida o‘quvchilarning rang uyg‘unligini his etish ko‘rsatkichi yetarli darajada rivojlanmagani aniqlansa, keyingi mashg‘ulotlarda rangshunoslikka doir interaktiv mashqlar, “Interaktiv palitra” va amaliy rang tajribalariga ko‘proq vaqt ajratiladi. Agar fazoviy tasavvur bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlansa, perspektiva, planlarga ajratish va plener kuzatuvlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kompozitsion yaxlitlik yetishmagan holatda esa eskiz va variantlar yaratishga qaratilgan topshiriqlar soni ko‘paytiriladi.

Shunday qilib, natijaviy blokda olingan diagnostik ma’lumot yana jarayonli va tashkiliy bloklarga qaytariladi. Bu o‘qituvchiga pedagogik jarayonni bir xil sxemada davom ettirish o‘rniga real natijalarga qarab individual va guruhiy tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Muhokama

Taklif etilayotgan strukturaviy-funksional modelning ilmiy-metodik ahamiyati, avvalo, badiiy ta’limda an’anaviy akademik tayyorgarlik va zamonaviy raqamli ta’limni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymasligida namoyon bo‘ladi. Perspektiva, kompozitsiya, rangshunoslik, naturani kuzatish va material bilan ishlash kabi fundamental akademik ko‘nikmalar saqlab qolinadi. Shu bilan bir vaqtda ularni o‘zlashtirish jarayoniga interaktiv topshiriqlar, raqamli modellashtirish, gamifikatsiya, STEAM elementlari va sun’iy intellekt vositalari kiritiladi.

Mazkur integratsiya, ayniqsa, 10–13 yoshli o‘quvchilar bilan ishlashda muhim. Ushbu davrda o‘quvchi o‘zining realistik tasvir imkoniyatlarini tanqidiy baholay boshlaydi. Tasavvuridagi obraz bilan qog‘ozda hosil qilayotgan tasviri o‘rtasidagi farq badiiy faoliyatga qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Raqamli muhitda xavfsiz eksperiment qilish, rang va kompozitsiya variantlarini oldindan sinash, vizual misollarni tahlil qilish o‘quvchiga o‘z g‘oyasini bosqichma-bosqich aniqlashtirish imkonini beradi.

Modelning yana bir muhim jihati ta’lim natijasini faqat tayyor rasmning texnik sifatiga qarab baholamaslikdir. Badiiy-ijodiy qobiliyat o‘quvchining perspektivani bilishi yoki rangni to‘g‘ri tanlashi bilangina cheklanmaydi. Uning kompozitsion qarori, estetik hissiyoti, original g‘oya taklif qila olishi hamda obraz orqali shaxsiy munosabatini ifodalashi ham muhim natija hisoblanadi.

Shu sababli fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlikning yagona mezonlar tizimida baholanishi o‘quvchi ijodiy rivojlanishining nisbatan yaxlit tasvirini olish imkonini beradi.

Xulosa

Umumta’lim maktablarining 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish murakkab va ko‘p komponentli pedagogik jarayon bo‘lib, uni alohida metod yoki vositalarni qo‘llash bilangina samarali tashkil etish mumkin emas.

Ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model maqsadli, tashkiliy, jarayonli va natijaviy bloklarning uzviy birligi asosida mazkur jarayonni yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Modelda ta’lim mazmunining 5-sinfdan 7-sinfgacha propedevtik tayyorgarlikdan konstruktiv-fazoviy tasvirga, undan esa kolorit va badiiy obraz yaratishga qarab spiralsimon rivojlanishi o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga muvofiq izchil rivojlanishni ta’minlaydi.

An’anaviy tasviriy vositalarning zamonaviy raqamli-interaktiv texnologiyalar, STEAM, gamifikatsiya va sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan integratsiyasi o‘quvchining nafaqat tasviriy mahorati, balki raqamli savodxonligi, mustaqil fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jarayonning “idrok – loyihalash – ijod – diagnostika” mantiqida tashkil etilishi o‘quvchini nazariy bilimni passiv qabul qiluvchidan mustaqil badiiy qaror qabul qiluvchi faol ijodkorga aylantiradi.

Fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlik asosida tashkil etilgan natijaviy baholash tizimi esa badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasini kompleks aniqlash imkonini beradi.

Refleksiya va korreksiyaga asoslangan qayta aloqa mexanizmi modelning muhim funksional elementi bo‘lib, diagnostik natijalardan kelib chiqib pedagogik jarayon mazmuni, metodlari va vositalarini muntazam ravishda takomillashtirib borish imkoniyatini yaratadi.

Demak, ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model 5–7-sinf o‘quvchilarining manzara kompozitsiyasini o‘zlashtirish jarayonini maqsad, mazmun, faoliyat va natija jihatidan yagona tizimga birlashtirib, ularda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni izchil shakllantirishning ilmiy-metodik asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Штофф В.А. Моделирование и философия. – М.–Л.: Наука, 1966.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
3. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и неопределённость // Педагогика. – 2003. – № 4. – С. 21–26.
4. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: психологический очерк. – М.: Просвещение, 1991. – 93 с.
5. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
6. Torrance E.P. The Search for Satori and Creativity. – Buffalo, NY: Creative Education Foundation, 1979. – 196 p.
7. Dewey J. Art as Experience. – New York, 1934.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
9. Eisner E.W. The Educational Imagination: On the Design and Evaluation of School Programs. – New York: Macmillan, 1994.
10. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: Альянс, 2014. – 256 с.
11. Шорохов Е.В. Основы композиции: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1979. – 303 с.
12. Freedman K. Teaching Visual Culture: Curriculum, Aesthetics, and the Social Life of Art. – New York: Teachers College Press, 2025.